



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	

NEYROKOGNITIV RIVOJLANISH VA BOLALARNING MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Toshpo'latova Mahina Farxod qizi

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi

Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning neyrokognitiv rivojlanishi va ularning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritiladi. Diqqat, xotira, tafakkur, nutq, emotsional barqarorlik va ijro funksiyalari bolaning maktab ta'limiga moslashuvda muhim omil sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: neyrokognitiv rivojlanish, psixologik tayyorgarlik, maktabgacha ta'lim, diqqat, xotira, tafakkur, ijro funksiyalari.

Abstract: The article examines the relationship between neurocognitive development in preschool children and their psychological readiness for school. Attention, memory, thinking, speech, emotional stability, and executive functions are analyzed as key factors influencing a child's adaptation to school learning.

Key words: neurocognitive development, psychological readiness, preschool education, attention, memory, thinking, executive functions.

Аннотация: В статье рассматривается взаимосвязь нейрокогнитивного развития детей дошкольного возраста и их психологической готовности к школьному обучению. Анализируются внимание, память, мышление, речь, эмоциональная устойчивость и исполнительные функции как важные факторы адаптации ребёнка к обучению в школе.

Ключевые слова: нейрокогнитивное развитие, психологическая готовность, дошкольное образование, внимание, память, мышление, исполнительные функции.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish hamda bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida bolaning maktabga tayyorgarligi faqat savod o'rganish yoki elementar bilimlarni egallash bilan emas, balki uning psixologik, emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanish darajasi bilan ham belgilanishi ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, neyrokognitiv rivojlanish masalasi maktabgacha ta'limning muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Neyrokognitiv rivojlanish inson miyasi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bilish jarayonlari, ya'ni diqqat, xotira, tafakkur, nutq, idrok, emotsional boshqaruv hamda ijro funksiyalarining shakllanishi va takomillashuvini ifodalaydi. Aynan ushbu jarayonlarning yetarli darajada rivojlanganligi bolaning yangi ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvi, o'quv topshiriqlarini samarali bajarishi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot o'rnatishi hamda o'qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirishida muhim omil hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari neyrokognitiv rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan bolalarda maktabga moslashish jarayoni tezroq va samaraliroq kechishini ko'rsatmoqda.

Maktabga psixologik tayyorgarlik bolaning intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda uning irodaviy sifatleri, mustaqil faoliyatga tayyorligi, emotsional barqarorligi va kommunikativ ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarda neyrokognitiv rivojlanish komponentlarini erta aniqlash va maqsadli rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, diqqatni jamlay olish, ma'lumotlarni eslab qolish, mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mos qaror qabul qilish kabi ijro funksiyalari boshlang'ich ta'lim bosqichida muvaffaqiyatli o'qishning muhim psixologik omillari sifatida namoyon bo'ladi.



So'nggi yillarda xorijiy pedagogika, rivojlanish psixologiyasi va neyropsixologiya sohalarida bolaning neyrokognitiv rivojlanishi hamda uning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati o'rtasidagi bog'liqlik keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Biroq mazkur muammoning maktabgacha ta'lim tizimi doirasida, ayniqsa, milliy pedagogik amaliyot nuqtai nazaridan yetarli darajada o'rganilmaganligi ushbu mavzuning ilmiy dolzarbligini belgilaydi. Shu bois neyrokognitiv rivojlanish va maktabga psixologik tayyorgarlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy-pedagogik hamda psixologik jihatdan tahlil qilish zamonaviy ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning neyrokognitiv rivojlanishi va ularning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlikni pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida neyrokognitiv rivojlanishning asosiy komponentlari, ularning shakllanish mexanizmlari hamda bolaning maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuvdagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi masalasi zamonaviy pedagogika, rivojlanish psixologiyasi hamda neyropsixologiya fanlarida keng tadqiq etilayotgan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar bolalarning kognitiv rivojlanish darajasi, ijro funksiyalari va emotsional-ijtimoiy kompetensiyalari maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuvning muhim omillari ekanligini ko'rsatadi.

A. Diamond ijro funksiyalarini bolaning diqqatni boshqarishi, impulslarni nazorat qilishi, ishchi xotira va kognitiv moslashuvchanlik kabi jarayonlar orqali izohlaydi. Olimning ta'kidlashicha, aynan ushbu funksiyalar bolaga yangi vazifalarni tushunish, o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish va o'quv faoliyatiga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi. Mazkur yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida faqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmasdan, balki diqqat, xotira va o'zini boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

C. Blair va C.C. Raver tadqiqotlarida maktabga tayyorgarlik bolaning o'zini boshqarish qobiliyati, ijro funksiyalari hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslangan. Mualliflar maktabga tayyorgarlikni faqat harf va sonlarni bilish darajasi bilan emas, balki biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro uyg'unligi sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, bola maktabga tayyor bo'lishi uchun topshiriqlarni tushunishi, qoidalarga rioya qilishi, o'z hissiyotlarini boshqara olishi hamda o'qituvchi va tengdoshlari bilan samarali muloqotga kirisha olishi zarur.

C. Blairning keyingi ilmiy izlanishlarida ijro funksiyalarining erta bolalik davrida jadal rivojlanishi va maktabga tayyorgarlikning muhim prediktorlaridan biri ekanligi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim jarayonida ijro funksiyalarini maqsadli rivojlantirish bolalarning keyingi akademik muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mazkur qarashlar neyrokognitiv rivojlanishni maktabga psixologik tayyorgarlikning asosiy ichki mexanizmlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

L.S. Vigotskiy nazariyasida bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit, muloqot va o'yin faoliyatining o'rni alohida e'tirof etiladi. Olimning fikricha, rolli va qoidali o'yinlar bolalarda o'zini boshqarish, ijtimoiy xulq-atvorni nazorat qilish hamda ramziy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham Vigotskiy g'oyalari asosida o'yin faoliyati bolalarning ijro funksiyalari va maktabga tayyorgarligini shakllantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida baholanmoqda.

L.E. Berk ham Vigotskiy nazariyasiga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarda tasavvurga asoslangan rolli o'yinlar o'zini boshqarish hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanishni sezilarli darajada kuchaytirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'yin jarayonida bola o'z harakatlarini qoidalarga moslashtiradi, muayyan rolni bajaradi, nutqiy va emotsional nazoratni mashq qiladi. Natijada maktabga psixologik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismlari hisoblangan irodaviy barqarorlik, kommunikativ kompetentlik va o'quv vaziyatlariga moslashuvchanlik rivojlanadi.

Shunday qilib, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari neyrokognitiv rivojlanish komponentlari, xususan, ijro funksiyalari, o'zini boshqarish qobiliyati, ijtimoiy-emotsional rivojlanish hamda o'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini shakllantirishda muhim omillar ekanligini tasdiqlaydi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar neyrokognitiv rivojlanish va maktabga psixologik tayyorgarlik o'rtasida uzviy hamda bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, diqqat, ishchi xotira, inhibitiv nazorat, kognitiv moslashuvchanlik, emotsional boshqaruv va ijtimoiy muloqot ko'nikmalari bolaning maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuvi va o'quv faoliyatini samarali amalga oshirishining muhim psixologik omillari hisoblanadi.

Shuningdek, neyrokognitiv rivojlanishning yetarli darajada shakllanganligi bolalarning o'quv topshiriqlarini tushunishi, o'z faoliyatini rejalashtirishi, xatti-harakatlarini nazorat qilishi hamda tengdoshlari va o'qituvchilar bilan samarali munosabatlar o'rnatishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktabgacha yosh davrida ushbu jarayonlarni maqsadli rivojlantirish bolaning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tahlillar asosida maktabgacha ta'lim jarayonida neyrokognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi o'yin faoliyati, muloqotga asoslangan mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar, sensor-motor mashqlar, rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar hamda ijodiy topshiriqlardan keng foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan pedagogik yondashuv ekanligi aniqlandi. Bunday faoliyatlar bolalarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish, psixologik tayyorgarligini mustahkamlash va maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi faqat savodxonlik, elementar matematik tasavvurlar yoki ayrim bilim va ko'nikmalarning shakllanganligi bilan belgilanmaydi. Ushbu jarayon bolaning neyrokognitiv rivojlanish darajasi, ya'ni diqqatni jamlay olish, ma'lumotlarni eslab qolish, topshiriqlarni tushunish, hissiyotlarini boshqarish hamda o'z faoliyatini rejalashtira olish qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Tahlillar maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning barqarorligi maktabga psixologik tayyorgarlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Xususan, bola tarbiyachi yoki o'qituvchining ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglay olsa, topshiriqni bajarish ketma-ketligini eslab qolsa va chalg'ituvchi omillarga qaramay faoliyatni davom ettira olsa, bu uning neyrokognitiv jihatdan maktab ta'limiga tayyorligini ifodalaydi. Aksincha, diqqatning tez-tez chalg'ishi va faoliyatni yakunlay olmaslik holatlari o'quv jarayoniga moslashishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Xotira jarayonlari ham maktabga psixologik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Maktab ta'limida bola ko'rsatmalarni eslab qolishi, o'tilgan materiallarni qayta tiklay olishi va yangi bilimlarni avvalgi tajribasi bilan bog'lay bilishi talab etiladi. Masalan, ertak mazmunini qayta hikoya qilish, rasm asosida voqealar ketma-ketligini izohlash yoki bir necha bosqichli topshiriqni mustaqil bajarish bolaning ishchi xotirasi va tafakkur faoliyati rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ijro funksiyalari, ya'ni o'zini nazorat qilish, faoliyatni rejalashtirish, impulsiv harakatlarni cheklash va vaziyatga moslashish qobiliyatlari maktabga tayyorgarlikning asosiy neyrokognitiv mezonlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, bola o'yin jarayonida navbat kutishi, belgilangan qoidalarga amal qilishi, topshiriqni oxirigacha bajarishi va xatolarini tuzatishga intilishi unda maktab ta'limi uchun zarur bo'lgan irodaviy hamda psixologik tayyorgarlik shakllanayotganidan dalolat beradi.

Muhokama jarayonida neyrokognitiv rivojlanishning bolaning emotsional barqarorligi bilan ham uzviy bog'liqligi aniqlandi. Maktabga ilk bor qadam qo'ygan bola yangi ijtimoiy muhit, baholash tizimi, tengdoshlari bilan munosabatlar va mustaqil faoliyat talablari bilan yuzma-yuz keladi. Agar bola o'z hissiyotlarini boshqara olsa, qo'rquv, xavotir yoki salbiy emotsiyalarni nazorat qila bilsa, uning maktab muhitiga moslashuvi ancha yengil kechadi.

Shuningdek, nutq va tafakkurning rivojlanganlik darajasi ham maktabga psixologik tayyorgarlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bola o'z fikrini izchil ifodalay olsa, savollarga mantiqiy javob bera olsa, sabab-oqibat munosabatlarini tushunsa va oddiy xulosalar chiqara olsa, bu uning kognitiv rivojlantirish maktab ta'limi talablariga mos kelayotganligini ko'rsatadi. Masalan, "Nima uchun yomg'irdan keyin yer ho'l bo'ladi?" kabi savollarga mantiqiy javob bera olish bolaning tafakkur operatsiyalari yetarli darajada shakllanayotganidan dalolat beradi.

Olingan natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, neyrokognitiv rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan bolalarda maktabga psixologik tayyorgarlik ham nisbatan barqaror shakllanadi. Bunday bolalar o'quv topshiriqlarini tezroq tushunadi, sinf qoidalariga oson moslashadi, o'qituvchi ko'rsatmalarini samarali bajaradi hamda tengdoshlari bilan konstruktiv muloqotga kirishadi.

Amaliy jihatdan maktabgacha ta'lim jarayonida neyrokognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi faoliyat turlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, qoidali o'yinlar, xotirani rivojlantiruvchi mashqlar, diqqatni jamlash topshiriqlari, konstruktorlik faoliyati, rasm asosida hikoya tuzish, rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari neyrokognitiv rivojlanish va maktabga psixologik tayyorgarlik o'rtasida bevosita hamda mazmunli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlash jarayoni faqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, balki diqqat, xotira, tafakkur, nutq, emotsional boshqaruv va ijro funksiyalarini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Neyrokognitiv rivojlanish bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Diqqat, xotira, tafakkur, nutq, emotsional barqarorlik va ijro funksiyalarining rivojlanganlik darajasi bolaning yangi ta'lim muhitiga moslashuvi, o'quv topshiriqlarini bajarishi hamda ijtimoiy munosabatlarga kirishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, neyrokognitiv rivojlanishi yuqori bo'lgan bolalar maktab talablariga tezroq moslashadi, topshiriqlarni izchil bajaradi, o'z xatti-harakatlarini boshqara oladi va o'qishga nisbatan ijobiy motivatsiyaga ega bo'ladi. Aksincha, diqqatning beqarorligi, xotira jarayonlarining sustligi yoki emotsional boshqaruvdagi qiyinchiliklar bolaning maktab ta'limiga moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, maqolada neyrokognitiv rivojlanish va psixologik tayyorgarlik o'rtasidagi bog'liqlik faqat biologik omillar bilan emas, balki pedagogik muhit, o'yin faoliyati, kommunikativ munosabatlar va rivojlantiruvchi mashg'ulotlar bilan ham bog'liq ekani asoslandi. Ayniqsa, qoidali va rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar hamda diqqat va xotirani rivojlantiruvchi mashqlar bolalarning maktabga tayyorgarligini kuchaytiruvchi samarali vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

Natijalarga tayangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlash jarayoni faqat boshlang'ich bilimlarni o'rgatishga emas, balki ularning neyrokognitiv va psixologik rivojlanishini kompleks qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi zarur. Bu esa kelajakda bolaning akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Diamond A. Executive Functions // Annual Review of Psychology. - 2013. - Vol. 64. - P. 135–168. - DOI: 10.1146/annurev-psych-113011-143750. - URL: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/23020641/>
2. Blair C., Raver C.C. School Readiness and Self-Regulation: A Developmental Psychobiological Approach // Annual Review of Psychology. - 2015. - Vol. 66. - P. 711–731. - DOI: 10.1146/annurev-psych-010814-015221. - URL: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC4682347/>
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge: Harvard University Press, 1978. - 159 p. - URL: <https://www.hup.harvard.edu/books/9780674576292>
4. Berk L.E. Child Development. 9th ed. - Boston: Pearson, 2013. - 800 p. - URL: https://books.google.com/books/about/Child_Development_9th_Edition.html?id=YTD1jwEACAAJ
5. Bodrova E., Leong D.J. Tools of the Mind: The Vygotskian Approach to Early Childhood Education. - New York: Routledge, 2024. - URL: <https://www.taylorfrancis.com/books/mono/10.4324/9781003164920/tools-mind-elena-bodrova-deborah-leong>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.